

“YASHIL ENERGIYA MUHANDISI” TANLOVini o‘tkazish to‘g‘risidagi NIZOM

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu nizom O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladigan yashil va qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalari sohasidagi tanlovlarni tashkil etish, boshqarish va o‘tkazish uchun umumiy qoidalarini belgilaydi.

1.2. Nizom tanlovning barcha bosqichlari va yo‘nalishlarida qat’iy amal qilinadigan asosiy hujjat hisoblanadi. Tanlovga oid barcha qo‘shimcha reglamentlar ushbu nizomga zid bo‘lmasligi lozim.

1.3. Nizom quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

Yoshlar o‘rtasida yashil energiya va muhandislik tafakkurini rivojlantirish

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini targ‘ib qilish (BMT Barqaror Rivojlanish Maqsadi – SDG 7: Affordable and Clean Energy)

Ekologik barqaror texnologiyalarni amaliyotga joriy etish

Yosh muhandislarni innovatsion yechimlar ishlab chiqishga tayyorlash

1.4. Ushbu nizomda ko‘rsatilmagan barcha masalalar tanlov reglamentlari orqali tartibga solinadi.

2. TANLOV TASHKILOTCHILARI

2.1. Tanlovni tashkil etish va boshqarish uchun maxsus Tashkiliy qo‘mita tuziladi.

2.2. Tashkiliy qo‘mita quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Tanlov reglamentlarini tasdiqlash

Hakamlar hay‘atini shakllantirish

Tanlovning texnik va tashkiliy masalalarini hal qilish

Shikoyat va apellyatsiyalarni ko‘rib chiqish

2.3. Tashkiliy qo‘mita o‘z faoliyatida mustaqil bo‘lib, qabul qilingan qarorlar yakuniy hisoblanadi.

3. TANLOV ISHTIROKCHILARI

3.1. Tanlovda yashil energiya, muhandislik va texnologiyalarga qiziquvchi barcha 12-40yosh toifasidagi ishtirokchilar qatnashishi mumkin.

3.2. Ishtirokchilar tanlovda qatnashish uchun shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishlari shart.

3.3. Har bir ishtirokchi yoki jamoa ushbu nizom va tanlov reglamentlariga amal qilish majburiyatini oladi.

4. ENERGIYA QURILMALARI UCHUN UMUMIY TALABLAR

4.1. Tanlovga taqdim etiladigan qurilmalar xavfsiz, texnik jihatdan ishonchli va ishlashga yaroqli bo‘lishi shart.

4.2. Qurilmalar qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan bo‘lishi lozim, jumladan:

Quyosh panellari

Shamol generatorlari

Gibrid yoki boshqa ekologik toza energiya yechimlari

4.3. Har bir qurilmaning texnik parametrlari tanlov reglamentlarida belgilanadi. Ushbu parametrlarga quyidagilar kiradi:

Maksimal o'lcham va vazn

Energiya ishlab chiqarish usuli

Chiqish kuchlanishi va ulanish talablari

4.4. Texnik nosozlik yoki xavf tug'diruvchi qurilmalar tanlovdan chetlashtiriladi.

5. TANLOV O'TKAZISH TARTIBI

5.1. Tanlov Tashkiliy qo'mita tomonidan tasdiqlangan reglament asosida o'tkaziladi.

5.2. Barcha ishtirokchi qurilmalari tanlovdan oldin majburiy texnik ekspertizadan o'tkaziladi.

5.3. Tanlovning asosiy bosqichi 1 soatlik energiya ishlab chiqarish sinovidan iborat bo'ladi.

5.4. Ishtirokchilarning barcha qurilmalari umumiy LED diodli energiya sferasiga ulanadi.

5.5. Tanlov jarayonida tashqi elektr tarmoqlariga ulanish qat'ian taqiqlanadi.

6. HAKAMLAR HAY'ATI

6.1. Hakamlar hay'ati Tashkiliy qo'mita tomonidan shakllantiriladi.

6.2. Hakamlar hay'ati quyidagi vazifalarni bajaradi:

Qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish

Qurilmalarning texnik muvofiqligini baholash

Tanlov natijalarini aniqlash

6.3. Hakamlar hay'ati qarorlari yakuniy hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

7. SHIKOYATLAR VA APPELLYATSIYA

7.1. Ishtirokchilar Tashkiliy qo'mitaga shikoyatlarni yozma shaklda taqdim etishlari mumkin.

7.2. Shikoyatlar tanlov bosqichi yakunlanganidan so'ng 10 daqiqa ichida topshirilishi lozim.

7.3. Apellyatsiyalar Tashkiliy qo'mita tomonidan ko'rib chiqilib, tegishli qaror qabul qilinadi.

8. TAQIQLANGAN HOLATLAR

8.1. Quyidagi harakatlar qat'ian taqiqlanadi:

Tashqi elektr manbalaridan foydalanish

Oldindan zaryadlangan akkumulyator yoki batareyalardan foydalanish

Qurilmaga qo'lda yoki tashqi ta'sir orqali aralashish

Atrof-muhit yoki inson hayotiga xavf tug'diruvchi materiallardan foydalanish

8.2. Qoidalarini buzgan ishtirokchilar diskvalifikatsiya qilinadi.

9. XAVFSIZLIK VA TARTIB

9.1. Tanlov davomida elektr, mexanik va ekologik xavfsizlik qoidalariga qat'iy amal qilinishi shart.

9.2. Ishtirokchilar va tomoshabinlar Tashkiliy qo'mita ko'rsatmalariga rioya qilishlari lozim.

9.3. Voyaga yetmagan ishtirokchilar nazoratsiz qoldirilmasligi kerak.

10. QO'SHIMCHA QOIDALAR

10.1. Tanlovning maxsus qoidalari va texnik reglamentlari rasmiy manbalar orqali e'lon qilinadi.

10.2. Tashkiliy qo'mita reglamentlarga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

10.3. Ushbu nizomda nazarda tutilmagan holatlarda Tashkiliy qo'mita qarori ustuvor hisoblanadi.

11. QO'SHIMCHA SHARTLAR

11.1. Ishtirokchilar tashkilotchilar tomonidan talab etilgan qo'shimcha hujjat va ma'lumotlarni taqdim etishlari shart.

11.2. Barcha qurilmalar odamlar, atrof-muhit va boshqa qurilmalarga zarar yetkazmasligi lozim.

11.3. Tanlov davomida ishtirokchilar maxsus identifikatsiya belgisi bilan bo'lishlari shart.

12. NATIJALARNI UMUMLASHTIRISH VA TAQDIRLASH

12.1. Tanlov g'oliblari belgilangan tartibda aniqlanadi.

12.2. I, II va III o'rinlarni egallagan ishtirokchilar diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

12.3. 1 soat ichida eng ko'p energiya ishlab chiqargan qurilma tanlovning asosiy g'olibi deb e'tirof etiladi.

12.4. Tashkiliy qo'mita sovrinlar va maxsus mukofotlar ro'yxatini kengaytirish huquqiga ega.

**Ushbu nizom musobaqa boshlanishiga kamida 30 kun qolganida o'zgartirilishi mumkin. O'z o'rnida yangilangan nizom barcha ro'yhatdan o'tgan ishtirokchilarga taqdim etiladi.*